



**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI**



**Toshkent viloyati Chirchiq shahar
21-umumta`lim maktabning
“Boshlang`ich sinf” o`qituvchisi
M.Eshmetovaning
I-soatlik ochiq dars
Ishlanmasi**

Mavzu: Bahorda o`simlik hayoti

Maqsad.

**Ta`limiy:** O`quvchilarga o`simlikning bahorgi gullashi haqida tushuntirish. tabiatdagi o`zgarishlarning ularga tasiri haqida tushuncha berish

Tarbiyaviy : O`simliklarni nobud qilmaslik, kerakligini takidlash, obodonlashtirish ishlarida faol qatnashishlarini tushuntirish orqali mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi: O`simliklar, gullar daraxtlar bahordagi hayoti haqidagi fikirlarni rivojlantirish.

Dars turi: Yangi bilim beruvchi,

Dars usuli: Tushuntirish, suhbat,

Dars jihoz: Darslik rasimlar, rasimli topishmoq, bodom, o`rik daraxti=shoxli.

Darsning borishi :

I. Tashkiliy qisim.

a) Salomlashish.

b) Sinif xonasi va o`quvchilarning darsga tayyorligini nazorat qilish.

d) Ob-havo, kun davomati haqida navbatchi axboroti tenglanadi.

I topsiriq. Har bir qator Navro`z bahor haqida rasim

Dars jarayonida rioya qilishimiz zarur bo`lgan oltin qoidalar eslatiladi.

Sinif 3 guruhga bo`linadi. Zukkolar, Bilimdonlar, A`lochilar

II topshiriq.

O`quvchilarga gullar haqida she`rlar aytib berish taklif qilinadi.

II. O`tilgan mavzuni takrorlash uchun tarmoqlash usulidan foydalaniladi.

III topshiriq savollar beriladi.

a) Bahorda tabiatda qanday o`zgarishlar ro`y beradi ?

b) Navro`z qachon kirib keladi ?

c) Navro`z qanday bayram ?

Navro`z haqida o`quvchilarning umumlashtiriladi.

Baholar doskada qo`yib boriladi.

III. Yangi mavzu .Bahorda o`simlik hayoti

O`quvchilarga bodom va o`rik shoxlari ko`rsatiladi.

Mavzu tushuntiriladi

Bahorda Quyosh baland ko`tarikib, hovo, yer isiyboshlaydi.

Yerdan qor ketishi bilan maysalar unib chiqadi. Boychichak, chuchmoma, binafsha ochiladi.

Kunlar isib brogan sari daraxtlar tanasiga yerdan suv bilan birga ozuqalar ko`tariladi.

Eng oldin bodom gullaydi va barg chiqaradi. Kiyin shaftoli, o`rik, nok, gilos, olcha, olma gullay boshlaydi.

Eng oxiri behi gullaydi. Ko`pchilik daraxtlar oldin gullab, so`ng barg yozadi. Behi esa oldin barg chiqarib, keyin gullaydi.

(O`quvchilarga agar slaydda daraxtlarning gullashi ko`rsatilsa yaxshi bo`ladi)

O`quvchilarga „Qora sovuq” haqida ma`lumot beriladi.

Bahorda ba`zan havo birdan sovib ketadigan kunlar ham bo`ladi. Birdan tushadigan qattiq sovuqni „Qora sovuq” deyishadi.

„Qora sovuq” juda xavfli, u mevali daraxtlar gulini, dalalarga ekilgan ekinlarni qoray tirib ketadi.

Bog`bonlar „Qora sovuq”da mevali daraxtlarning gullari va endigina tukkan mevalarini sovuq urib ketmasligi uchun mevali bog`larning shamol keladigan gulxan yoqishadi. Shu yo`l bilan ular daraxtlarni sovuq urib ketishidan asrashadi.

Aziz bolalar, siz ham ko`chat ekishda, yurtimizni chiroyli bo`lishi uchun obodonlashtirish ishlarida faol qatnashing. Sababi o`simliklar havoni tozalovchi yagona feltir fazifasini o`tash bilan muhim ahamiyatga egadir.

Bundan tashqari ularning shirin-shakar mevalari biz uchun oziq-ovqat hisoblanadi.

Darslik bilan ishlash.O`quvchilarga-matinni o`qish.

Dam olish daqiqasi

Daraxt tagini yumshatamiz,

Daraxtga suv quyamiz.

Daraxtim o`sib ketar,

Bo`yi osmonga yetar.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash. Mevalar haqida she`rlar yodlash.

IV topshiriq, mevalar haqida she`rlar.

Uzum:

Donalarim marjoncha,
Bir boshim-naqt bir jomcha,
Quritsangiz, mayizman,
Dastorxonga fayizman.
Kuzda yeb-yeb to`yishar,
Qishda osib qo`yishar.

Anjir:

Kecha-kunduz uxlayman,
Meva tugdim gullayman.
Mevam o`zi gulchadir,
Tilla rangli kulchadir.
G`o`daymayman sipoman,
Ko`p dardlarga shifoman.

O`rik:

Yeging kelsa ko`k g`o`ra,
Bahor chog`ida so`ra.
Yozda esa pishamasi.
Qoqma , o`zim tushaman.
Xohlasang,ye mag`izini
Qani och-chi og`izini

Behi:

Ikki yuzim burushqoq,
Dema meni urushqoq.

Ishga solib aqlimni,
Sezdirmayman jahlimni.

Nok:

Qayda salqin havodir,
Tan-jonimga davodir.
Mevalarim qand-bollik,
Qilmasang bas qo'pollik.

Shaftoli:

Men turaman bukib shox,
Kamtarinmas va yumshoq.
Qo'yinlarga solishib,
So'ng yurishar qichishib.

Anor:

Har donacham bir askar,
Bir qal'ada mong lashkar.
Ular yotar panada-
Oq pardali xonada.

Gilos:

Bir qiz , boldoq qilay deb,
Quchog'imga ilay deb,
Qo'sh mevamni uzvoldi.
Uyqumniyam buzvordi.

Olma:

Ko'pning ko'zing kuydirgan,
Qornini ham to'ydirgan.
Menman o'sha naqsh olma,
Endi yo'lingdan qolma.

V-topshiriq.(savollar)

- | | | |
|--|--------------------|----------|
| 1)Yomg'ir yog'ib turganda qarg'a qaysi daraxtga xo'nadi? | (Ho'l | daraxtga |
| qo'nadi) | | |
| 2)Qaysi qush o'z nomini aytib sayraydi? | (Kakku) | |
| 3)Qayerda osmon pastda bo'ladi? | (suvda) | |
| 4)Nima soqoli bilan tug'iladi? | (Echki) | |
| 5)Suv ostida qanday tosh bo'lmaydi? | (Quruq) | |
| 6)Qirg'oq bilan suv o'rtasida nima bor? | (“Bilan”so'zi bor) | |

VI.Darsni yakunlash.

Guruh ballarini hisoblash,g'olib guruhni aniqlash,o'quvchilarni rag'batlantirish.

Obodonlashtirish ishlarida faol qatnashishlarini yana bir bor ta'kidlasb o'tish.

VI.Uyga vazifa,”Bahorda o'simliklar hayoti” mavzusini o'qish , savollarga javob topish,daraxtlarni kuzatish .Qaysi daraxtlar avval gullaganini, qaysilari birinchi bo'lib barg yoza boshlaganini aniqlab “Ish daftari”ga yozib qo'yishlarini tushuntirish.

